

TILSHUNOSLIKDA MODALLIK KATEGORIYASINING STILISTIK XUSUSIYATLARI (O‘ZBEK, FRANSUZ VA RUS TILLARI MISOLIDA)

Maksatxan ABDRAKMANOVA*

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikda modallik muammolarini o‘rganish hali davom etmoqda. Modal so‘zlar gapda so‘zlovchining fikriga subyektiv munosabatini bildiradi va og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladi. Modallik – so‘zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya bo‘lib, muloqotda muhim ahamiyatga ega. Fransuz, rus va o‘zbek tillarida modallik turli vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, fransuz tilida modal fe‘llar va modal so‘zlar yordamida, rus tilida esa ba‘zi modal fe‘llar va so‘zlar ishlatiladi. Fransuz tilida modallikni ifodalashda fe‘llar, modal so‘zlar va intonatsiya muhim vositalardir. Ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llanadigan bu so‘zlar, tilning kommunikativ-funksional jihatlarini ochib beradi. Fransuz tili o‘ziga xos sintaktik strukturalar orqali modallikni ifodalashda ko‘proq murakkab tizimlarni ishlatadi. Modallik so‘zlari leksik, sintaktik va morfologik vositalar orqali ifodalanadi va tilda nutqning umumiy mazmunini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit So‘zlar : *Kategoriya, Modallik, Inkor, So‘Roq, Tasdiq.*

Stylistic Features of the Modality Category in Linguistics (For Example Uzbek, French and Russian Languages)

Abstract: The study of modality problems in modern linguistics is still ongoing. Modal words express the speaker's subjective attitude to the thought in a sentence and are widely used in oral speech. Modality is a grammatical-semantic category that expresses the speaker's attitude to the thought being expressed, and is of great importance in communication. Modality is expressed in French, Russian and Uzbek through various means. For example, in French, modal verbs and modal words are used, and in Russian, some modal verbs and words are used. Verbs, modal words and intonation are important means of expressing modality in French. These words, which are used more in oral speech, reveal the communicative-functional aspects of the language. The French language uses more complex systems in expressing modality through its own syntactic structures. Modal words are expressed through lexical, syntactic, and morphological means and are important in indicating the general content of speech in a language.

Keywords: *Category, Modality, Negation, Question, Affirmation.*

Kirish

Modallik kategoriyasi va uning semantik xususiyatlari juda qadimdan faylasuflarni va boshqa fanlarning vakillarini qiziqtirib kelgan. Bu fikrlarning dalili sifatida Aristotel tomonidan modallik kategoriyasining ikki aspektga – “obyektiv borliqdagi harakatning amalga oshishi mumkinligi yoki uning haqiqatdan oshmasligi mumkinligi (ehtimolliigi)” – ajratilishini keltirishimiz mumkin. Modallik kategoriyasini mohiyati haqida Aristotel shunday deydi: “Bu eng oliy mantiqiy tushunchalar bo‘lib, obyektiv borliqning asosiy, muhim xususiyatlari kategoriyalarda aks etadi va ular asosida boshqa tushunchalar hosil bo‘ladi. Ular moddiy dunyo (obyektiv borliq) bilan bog‘langanligi uchun kategoriyalar tabiat narsalari orasidagi bog‘lanish va ularning munosabatini ifodalab gaplarning asl mohiyatini anglatadi” (Kondakov, 1975: 10).

“Tilshunoslikda modallik, - deya ta’kidlaydi J. Yoqubov, - so‘zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga va gapning voqelikka munosabatini anglatuvchi so‘zlar kategoriyasi deb ta’rif berilsa, mantiq ilmida esa modallik – hukmning asosiy muhim xususiyati bo‘lib, unda predmetning u yoki bu belgisi ifodalanadi. Modallik hukmda aytilgan voqelikning mazmuniga ko‘ra, unga beriladigan semantik tavsif: *hukm zaruriy, ehtimoliy, tasodifiy, noehtimoliy* kabi tushunchalarning predikat bilan subyekt orasidagi mantiqiy bog‘lanishi tushuniladi. Modallik mantiqda *chin, xato, tasdiq, inkor, shart* ma’nolarini anglatib, ular maxsus modal operatorlar orqali ifodalanadi (Yoqubov, 2005: 6-7).

* O‘qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, e-pochta : maksadbonu69@gmail.com

Modallik tilshunoslikda fe'llarning infinitiv shakli bilan bir qatorda, mustaqil ma'noga ham ega bo'lishligi, o'zbek, fransuz, va rus tillarida modallik kategoriyasi turli vositalar orqali (masalan, fransuz tilida modal fe'llar va modallik ma'nosini anglatuvchi modal so'zlar yordamida, rus tilida esa ba'zi bir modal fe'llar va modal so'zlar, modal yuklamalar yordamida, o'zbek tilida esa modal ma'nolar bir qancha yo'llar bilan ya'ni — ot, fe'l va ravishlarning ayrim shakllari, shuningdek, yuklama va modal so'zlar bilan) ifodalanadi. Modal so'zlar mulohazaning umumiy mazmunini xarakterlovchi muhim belgilardan biri hisoblanadi, chunki so'zlovchining ushbu mazmunga munosabatini bildiradi. Modallik, *birinchidan*, obyektiv borliqni inson ongida aks etishi yoki voqelikka bo'lgan nutq mazmunining munosabatini ifodalasa, *ikkinchidan*, gapning turli tiplari modallik kategoriyasi bilan uzviy bog'liqdir. Har bir gap o'zi uchun muhim konstruktiv belgisi bo'lgan modal ma'nolarni, ya'ni voqelikka bo'lgan munosabatni qamrab oladi. Biror maqsadga yo'naltirilgan har qanday gap mazmuni hissiyot, undash u yoki bu gap shaklida voqelikni aks ettiradi va bu til tizimida mavjud bo'lgan gapning intonatsion tuzilishiga o'ralgan holda fe'l mayllari yordamida sintaktik ma'nolarning birini ifodalab, modallik kategoriyasini tashkil qiladi. Roman va german tillarida modallik kategoriyasini ifodalashda boshqa mayllarga nisbatan indikativni konyunktivga zid qo'yish hollari uchraydi. Buni biz maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz, chunki bu mayllarning har biri erkin, mustaqil ma'nolarni, masalan, indikativ real, tasdiq, chin-xato va h.k. tushunchalarni ifodalab kelsa, konyunktiv esa istak, taxmin, iltimos, buyruq kabi ma'nolarni aniqlab keladi. Tilda turli vositalar bilan, jumladan, 1) morfologik (fe'l mayllari), 2) leksik (modal fe'l va so'zlar kabi), 3) sintaktik (so'z tartibi, intonatsiya va h.k.) vositalar bilan ifodalanadi.

O'zbek tilshunosligida gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati modallik deb tushuniladi. Modallik so'zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya sifatida namoyon bo'lishi, aytilayotgan fikrning real-noreal holatga munosabati(tasdiq-inkor, mumkinlik, taxmin, shubha kabilar) turli vositalar orqali ifodalanishi kuzatiladi.

Rus tilining gap bo'laklarini joylashtirish to'g'risidagi katta erkinligi fransuz tiliga qaraganda intonatsion vositalardan foydalanashga ko'p jihatdan imkoniyat beradi. Misol uchun, "On poet xorosho" gapi rus tilida ish-harakat subyektini ta'kidlash bilan ifodalanishi mumkin, buning ustiga bu ta'kidda so'zlovchining mulohazaga ma'lum munosabati kiritilgan bo'ladi; qiyoslang: "on" ni mantiqiy urg'u bilan talaffuz qilish mumkinligi – "On poet xorosho". Fransuz tilida subyektning bunday ajratib ko'rsatilishi faqat uning boshqa shaklini, aynan mustaqil shaklini, olmoshni kiritish bilan erishilishi mumkin, qiyoslasak: "il chante bien" va subyektni ilgari surishda "lui, il chante bien".

Tegishli intonatsiyani talab qiluvchi modal vositalar sifatida o'z xarakteri bo'yicha modal ma'noga ega bo'lmagan ayrim so'zlarning takrorlanishi ham qo'llanilishi mumkin. Umumiy qoidaga binoan, ma'lumki, takrorlash kuchaytirishning vositalaridan birini namoyon qiladi, shu bilan birga, mulohazaning leksik tarkibiga qarab, u ham kuchaytirishni, ham kamaytirishni bildirishi mumkin. Ayrim hollarda, ilgari aytib o'tilganidek, umuman modallik xarakteriga ega bo'lmagan so'zlar, tegishli intonatsiyada ma'noning ma'lum nozik farqlariga ega bo'lishlari mumkin; misol uchun, "il chante très bien" gapida très ravishi ish-harakat sifatining oddiy kuchayishini ifodalaydi; "il chante très très bien" gapida très ning takrorlanishi ish-harakat sifatining yana-da ko'proq kuchayishini ko'rsatishi mumkin, ammo takrorlanayotgan ravishni ta'kidlaydigan ma'lum intonatsiyada, "très" faqat sifatning oddiy kuchayishining ifodasi emas, balki so'zlovchining ish-harakatning sifati haqida o'zi bildirayotgan munosabatning ifodasi bo'lib xizmat qiladi: "il chante très très bien".

Ta'kidlash kerakki, ayrim so'zning takrorlanishi modallikni ifodalashning vositasi sifatida emas, balki oddiy (ijobiy yoki salbiy) kuchaytirishning vositasi sifatida fransuz adabiy tilida rus tiliga qaraganda kamroq rivojlangan, lekin uning qo'llanilishi, tadqiqotning

ko'rsatishicha, rivojlanmoqda, u hozirgi fransuz tilida ilgarigiga qaraganda tez-tez uchray turibdi. K. Nyurop o'zining tarixiy grammatikasida qayd qiladi-ki, xalq tilida va bolalarning tilida juda keng tarqalgan ayrim so'zlarning takrorlanishi shuningdek adabiy tilda ham qo'llaniladi (Nyrop, 1925: 2) "La répétition d'un mot est très répandue dans les parlers populaires comme dans le langage des enfants. La langue littéraire s'en sert également: il grandit, grandit pendant des mois et des mois" (Loti, 1890 :153).

Hozirgi fransuz yozuvchilarining asarlarida uchraydigan modal so'z va iboralarining yuqorida keltirilgan ro'yxatining ko'rsatishicha, bu so'zlarning asosiy ko'pchiligi oldingi davrlarning tilida ham qo'llanilgan. Bu so'zlar orasida qo'llanilishdan allaqachon chiqib ketayotgan modal so'zlarni ham uchratamiz: qiyoslang: kamdan-kam hollarda uchraydigan néanmoins. Ko'rib chiqilayotgan asarlarda kamdan-kam hollarda uchraydigan modal ma'noli néanmoins ravishi qo'llanilishi fakti bilan partant ravishi qo'llanilishining bu asarlarda yo'qligini ham ko'rsatib o'tish kerak. Ye. Littrening lug'atida mavjud bo'lgan partant xususidagi eslatmadan ko'rinib turibdiki, ilgari Lafonten va Volter tomonidan modal ma'noda qo'llanilgan bu so'z, asosan, ishchi va tor professional tilda, xususan buxgalteriya tilida qo'llanila boshlandi, ya'ni umumxalq tilidan ketayotgan so'zlarning oddiy yo'lini bosib o'tdi: bu so'zlar umumxalq tilida qo'llanilishni bas qiladilar va tor qo'llanilish tilida qoladilar. Shunday qilib, partant Volterdan to bizning kunlarimizgacha bo'lgan vaqt davomida modal so'z sifatida tildan sekin-asta ketadi va hozirgi kunda modal so'z sifatida iste'moldan chiqqan hisoblanishi mumkin.

Ayni paytda hozirgi fransuz tilida xilma-xil nozik farqlarga ega bo'lgan yangi modal so'zlar va iboralar rivojlanmoqda; tilning lug'at zahirasi to'latib, ular tilni modallikni ifodalash borasida ancha boy va rivojlangan qilmoqdalar. Bunday modal iboralar tilda yetarli darajada keng tarqalgan, ko'rib chiqilayotgan asarlarda uchraydigan de toute(s) façon(s) iborasi kiritilishi kerak: – Quand penses-tu que nous serons fixés?

– Demain. – Bien, de toutes façons, je vais toujours envoyer deux de mes hommes pour reconnaître les emplacement... (Laffont, 1946: 13).

Ayrim hollarda tilda lug'atlarda de toute(s) façon(s) kabi hali qayd qilinmagan de toute évidence iborasi uchraydi:

– La préparation de la Conférence nationale paysanne pour la paix va contribuer de toute évidence à préparer le Congrès des peuples pour la paix dans les campagnes françaises (J. Duclos, Le rassemblement). Nutq mazmunining voqelikka munosabatini ifodalovchi modallik kategoriyasini kategoriya sifatida o'rganish masalalari, asosan grammatika sohasiga, ham so'zlarda, ham gaplarda, xususiylar va konkret dan abstraksiyalanib, grammatika so'zlarning va so'z birikmalarining gapdagi o'zgarishlarining asosida yotgan o'sha umumiyini oladi va ulardan grammatik qoidalarni, grammatik qonunlarni tuzadi. Grammatika inson tafakkurining uzoq davom etgan, mavhumlashtiradigan ishining natijasidir, tafakkurning ulkan muvaffaqiyatlarining ko'rsatkichidir. Zamonaviy fransuz progressiv yozuvchilarining ko'rib chiqilayotgan asarlarida leksik jihatdan farq ajralib turadigan adabiy tilning va "kunda ishlatiladigan" nutqning modal so'z va iboralarini qo'llashdagi mavjud farqlarga, yana shuningdek yozuvchilarning alohida bunday so'z va iboralardan foydalanishdagi bo'lishi mumkin individual o'ziga xos xususiyatlariga bu so'zlarning va iboralarining morfologik va sintaktik shaklini ko'rib chiqishda tegishli o'rin ajratilishi kerak.

Zamonaviy fransuz progressiv yozuvchilarining asarlarida modal so'z va iboralarni o'rganish bo'yicha keltirilgan ma'lumotlar hozirgi fransuz tilida modal so'z va iboralarni o'rganishda asosiy bo'lishlari kerak bo'lgan o'sha muammolarni aniqlab beradi. Quyidagilar shunday muammolar hisoblanadilar:

1) Konkret material asosida zamonaviy fransuz progressiv yozuvchilarining asarlarida qo'llaniladigan ayrim modal so'z va iboralarining morfologik shakllarini va leksik ma'nolarini aniqlash.

2) Konkret material asosida bu yozuvchilarning asarlarida modallikni ifodalashning sintaktik shakllarini va ularning ma'nolarini aniqlash.

3) Konkret material asosida zamonaviy fransuz yozuvchilari tomonidan qo'llaniladigan modal so'z va iboralarning asosiy ma'nolarini aniqlash.

Rus ilmiy adabiyotida modal so'zlarni o'rganish u yoki boshqa modal iboralar uchun xarakterli bo'lgan ayrim hodisalarni o'rganishdan emas, balki o'sha yaxlitlikdan, o'z ichiga u yoki boshqa modal ma'noni oluvchidan, chunonchi gapdan kelib chiqadi. Misol uchun, A. A. Potebnya, "Rus grammatikasi bo'yicha axborotlar"ning ikkinchi tomida znat (bilmok), so'zining ma'nosini tadqiq qilib, faqat uning ma'nosini va gapdagi sintaktik holatini ko'rib chiqqan qolmadi, balki o'z e'tiborini ham ushbu so'zning, ham boshqalarning, shunga o'xshash, o'zining terminologiyasi bo'yicha, "kirish" so'zlarning kelib chiqishiga qaratdi. Ma'lumki, A. A. Potebnya modal so'zlar genetik jihatdan kirish gaplardan kelib chiqqan deb hisoblar edi, ularning gapning boshqa bo'laklari o'rtasidagi mustaqil o'rni shu bilan izohlanadi (Potebnya, 1958: 85).

A. A. Potebnyaning izdoshi, akademik D.N. Ovsyanniko-Kulikovskiy, o'zining "Rus tili sintaksisi"da rus tilida mavjud bo'lgan modallikni ifodalashning sintaktik shakllariga, xususan qo'shma gaplardagi "chto" bog'lovchisining o'zidan oldin keladigan *nado zametit, izvestno* va h.k. so'zlari bilan bog'langan bosh va ergash gaplarning o'zaro munosabatiga o'z e'tiborini qaratdi. "Gapning mustaqilligi, tobeligi va murakkabligi tushunchasi ... – formal-sintaktik tushunchaning mohiyatidir: agar gap sintaktik jihatdan (ya'ni ma'lum bog'lovchilar, nisbiy olmoshlar va b.) boshqaga bo'ysundirilgan bo'lmasa, unda u mustaqil yoki bosh gap deb tan olinadi, garchi mazmuni bo'yicha u, aksincha, ushbu jumlada ikkinchi darajali va tobe jihat bo'lsa ham. Ha, masalan, "nado zametit, chto...", "izvestno, chto...", "nachat' s togo chto..." va h.k. oborotlarda asosiy fikr ergash gaplarda, *chto* bog'lovchisi bilan bosh yoki mustaqilga (*nado zametit* va b.) tobelarda kiritilgan, u, biroq, o'zining ma'nosi bo'yicha nafaqat "asosiy", balki kirish iborasining turiga o'xshab ham ketadi" (Ovsyaniko-Kulikovskiy, 1902: 296).

Gapning tarkibida u yoki boshqa "bir vaqtda yuz beradigan tasavvurlarni" ifodalaydigan "kirish gaplar", "kirish so'zlar" va yuklamalarning munosabatida akad. A.A. Shaxmatovning "Rus tili sintaksisi"ga ko'rsatmani uchratamiz. Kirish so'z va iboralarning rivojiga e'tibor qaratib, A.A. Shaxmatov modal kirish gaplarning modal so'zlarga va keyin bog'lamalarga sekin-asta o'tish imkoniyatini ko'rsatadi: "Gapdan tashqarida, ammo uning tarkibiga kiritilganlar bilan kirish so'zlar yoki kirish gaplar deb ataluvchilar bo'ladilar. Ular ko'pchilik hollarda bog'lamalarning ma'nosiga ega bo'ladilar. Chunki gupning tarkibiga u yoki boshqa bir vaqtda yuz beradigan tasavvurlarni kiritadilar. Shuning uchun, gapga kiritilganlar, ular ko'pincha oddiy bog'lamalarga o'tadilar. *Git (govorit) mol (молвь)* va b. bog'lamalarning kelib chiqishi shunday. Qiyoslang: bog'lamalarga aylanmagan kirish gaplari: *kajetsya, dumaetsya, vidno, razumeetsya, znat', mojet' bit', to-est', tak skazat'* va h.k." (Shaxmatov, 1941: 32).

Rus grammatikasining keltirilgan buyuk vakillari uchun xarakterli bo'lgan modal so'z va iboralarni gaplarning tarkibida tadqiq qilishni hozirgi tilshunoslikda uchratamiz. Unda yana boshqa, ancha ilk rus lingvistikasi uchun ham xarakterli bo'lgan jihatni – gapning umumiy tarkibida modal so'z va iboralarning asosiy sintaktik o'ziga xos xususiyatini ajralishini, aynan ularning o'zlari tarkibiga kiruvchi gap bo'laklariga nisbatan mustaqil holatini uchratamiz. Misol uchun, akad. L. A. Bulaxovskiy "Kursi suchasnoi ukrainskoi literaturnoi movi" kitobida modal so'zlarni gap bilan grammatik bog'lanmagan kirish so'zlarining bo'limlaridan biri, deb ta'riflaydi. "Xarakternimi oznakami vstavnix sliv e ix leksichna blidist, nezv'yazanist' z rechovimi uyavlenneyami, chasto-modal'ne znachennya; vidsutnist' gramatichnix zv'yazkivzyakim-nebud' okremim chlenom rechennya bo voni modifikuyut' znachennya vs'ogrechennya..." Biroq akademik Bulaxovskiy faqat modal

so'zlarning sintaktik o'ziga xos xususiyatlarining ta'riflari bilan chegaralanib qolmaydi, u shuningdek bu so'zlarning ma'nosidagi umumiy sohalarning eng muhim tarmoqlarini (vajlivishi z rozgaludjen') ham qayd qiladi (Bulaxovskiy, 1951: 133).

Bulaxovskiy tomonidan qayd qilinayotgan ma'nolar ularni tasniflashning umumiy prinsiplari bo'yicha bir xil emas: ularning ayrimlari so'zlovchining aytilayotganga subyektiv munosabati prinsipi bo'yicha olingan, masalan, *so'zlovchi emotsiyasi* (emotsiya movtsya); boshqalari iboraning shakllari bo'yicha berilgan, masalan, *mulohazani dialoglashtirish* (dialogizatsiya vislovu) va h.k. Modal so'zlar ma'nolarining berilayotgan rang-barangligining ijobiy tomoni shundan iboratki, u har xil ma'nolarni qamrab oladi, demak, ham ma'nolarning o'zlarini, ham ularning nozik farqlarini aniq tushunib olishga ko'maklashadi. Fransuz tilining modal so'zlari va modal iboralar o'zlarining spetsifik xususiyatlariga ega bo'lgan shakl va mazmunning birligini namoyon qiladilar. Bu tilning modal so'zlari uchun ma'lum "ravishlilik", ya'ni ma'lum o'zgarmaslik hamda ahamiyatlilik, bunga muvofiq ularning morfologik tarkibi bilan bog'liq bo'lgan har xil leksik mazmun xarakterli belgi hisoblanadi. Modal iboralar uchun xarakterli belgi ularning semantik-sintaktik tuzilishi bilan bog'liq kam leksik barqarorlik hisoblanadi.

Shunga ko'ra, modal so'zlarda "ravishlikni" ifodalashning xilma-xil shakllarini, modal iboralarda esa ularni tashkil qiluvchi so'zlarning xilma-xil leksik barqarorligini farqlash zarur bo'ladi. Fransuz tilining ko'rib chiqilayotgan so'z va iboralarining ham umumiy, ham xususiy tasnifi shu bilan belgilanadi. O'zlarining modal ma'nolari bo'yicha qarab chiqilayotgan hozirgi fransuz yozuvchilarining asarlaridagi –ment suffiksli ravishlar beshda guruhga taqsimlanishlari mumkin, ularning har biri o'z vazifasi bilan ajralib turadi. Bu vazifalar orasida quyidagilar bor: a) xabar qilinayotganni kuchaytirish (ta'kidlash), b) qandaydir belgini aniqlash, v) taxmin, g) xulosa, d) nutq subyektiga nisbatan xabar qilinayotganning bo'lishi mumkin qulay (yoki noqulay) ta'sirini ifodalash. Bu guruhlarining har biri o'zining asosiy ma'nosining nozik farqlariga ega bo'lishlari mumkin. Ko'rsatilgan guruhlarining eng ko'p sonligi kuchaytirish guruhi hisoblanadi; xulosa guruhi va xabar qilinayotganning bo'lishi mumkin qulay (yoki noqulay) ta'sirini ifodalash guruhlari eng kam sonlidirlar.

Ko'rib chiqilayotgan modal so'zlar orasida ma'lum leksik ma'noga ega bo'lgan bog'lovchilar bor. Bularga *"mais"*, *"quand"*, *"puisque"* kiradilar. Modal ma'noda qo'llaniluvchi bog'lovchilarning umumiy ma'nosi kuchaytirish hisoblanadi. Modal so'zlar kabi, bu bog'lovchilar yuklamalarning ma'nolarini oladilar; *"mais"* undov va so'roq gaplarda qo'llaniladi, *"quand"* va *"puisque"* esa umumiy qoida bo'yicha, faqat undov gaplarda ishlatiladilar. Modal so'z birikmalari orasida leksik jihatdan ancha barqaror bo'lgan birikmalarni va leksik jihatdan uncha barqaror bo'lmagan (undov so'z xarakteridagi) birikmalarni farqlaymiz. Birikmalarning birinchi turining asosiy ma'nolari a) kuchaytirish, b) xulosa, v) aytilganning ishonchliligini chegaralash. Oxirgi ma'noda ko'rib chiqilayotgan asarlarda ikkita turdagi iboralarni uchratamiz – otli va fe'lli. Bu iboralar odatda shaxsiy yoki begona nutqni tushuntiradi, shuningdek uning so'zlovchi tomonidan bahosini yoki eslatmasini bildiradi. Leksik jihatdan uncha barqaror bo'lmagan birikmalar oldingilaridan ularda mavjud bo'lgan iboralarining modal ma'nosi uchun intonatsiyaning ustunlik ma'nosi va shu munosabat bilan, o'z ma'nolarining rang-barang nozik farqi bilan ajralib turadilar.

Ko'rib chiqilayotgan asarlarda "par exemple"ning qo'llanilishi ko'rsatadi-ki, bu ibora tilda o'zining "masalan"ga teng bo'lgan leksik ma'nosini saqlab qoladi; shunga qaramasdan, gapning mazmuniga va intonatsiyaga qarab, u ma'noning juda rang-barang, ba'zan tarjima qilinmaydigan ma'nolariga ega bo'lishi mumkin. Fe'llardan kelib chiqqan beqaror iboralar guruhida biz asosan suhbatdoshga murojaatni hamda tasdiqlanayotganning ta'kidlanishini yoki diqqat qaratishga intilishni o'z ichiga olgan hozirgi zamonning 2-shaxs ko'plik shakllarini va buyruq shakllarini uchratamiz.

Xulosa

Aytish joizki, tilning soʻz tarkibining faqat bitta kichkina boʻlimida, fransuz tilining faqat modal soʻzlari va iboralarini taqdim qiluvchi boʻlimida tilning lugʻat tarkibi ustqurma sifatida emas, eskini bekor qilish va yangini qurish yoʻli bilan emas, balki mavjud lugʻatni ijtimoiy tuzumning oʻzgarishi, ishlab chiqarishning taraqqiy etishi, madaniyatning va fanning rivojlanishi va h.k. sababli paydo boʻlgan yangi soʻzlarga toʻldirish yoʻli bilan oʻzgaradi. Shu bilan birga, tilning lugʻat tarkibidan odatda ayrim eskirgan soʻzlar miqdori tushib qolishiga qaramasdan, unga yangi soʻzlarning anchagina katta miqdori qoʻshiladi.

Fransuz yozuvchilarining badiiy asarlarida mavjud modal soʻz va iboralar, oʻzining asosiy koʻpchiligida oldingi davrlarning tilida ham qoʻllanilgan. Bu soʻzlar orasida qoʻllanilishdan allaqachon chiqib ketayotgan modal soʻzlarni ham uchratamiz. Ayni paytda hozirgi fransuz tilida xilma-xil nozik farqlarga ega boʻlgan yangi modal soʻzlar va iboralar rivojlanmoqda, bu soʻzlar va iboralar tilning lugʻat tarkibini toʻlatyaptilar va uni modallikni ifodalashga nisbatan ancha boy va rivojlangan qilmoqdalar. Shunday qilib, modallik kategoriyasini ifodalashda modal soʻzlar, feʼl shakllari va yuklamalar faol ishtirok etib, gapning semantik xususiyatini ochib berishda katta rol oʻynaydi.

Fransuz tilida modallik kategoriyasini ifodalashda koʻproq feʼl mayllari bilan modal feʼllar ishtirok etsa, rus tilida modal feʼllar koʻproq qoʻllanadi. Oʻzbek tilida modal feʼllar bilan birga modal soʻzlar qoʻllanib, ular semantik xususiyati jihatdan turli guruhlarga boʻlinib, subʼektiv modallikni ifodalashga xizmat qiladi.

Modallikning kelib chiqish asosini tushuntirib berish uchun tilni obʼektiv borliq bilan bogʻlab oʻrganish, uning kelib chiqish va mohiyatini ilmiy talqinini bilish nazariyasi bilan bogʻlash maqsadga muvofiqdir. Bu modal soʻzlarni semantik guruhlarga boʻlib oʻrganishda yaqqol namoyon boʻladi.

ADABIYOTLAR

- Bulaxovskiy, Leonid (1951), “Kurs suchasnoï ukraïnskoï literaturnoï movi” “Naukova dumka”, Kiyev Sintaksis, stor. 133.
- Kondakov, N.I. (1975), *Logicheskii slovar – spravochnik*, Moskva: Nauka.
- Laffont, Jean (1946), *Nous retournerons*, Paris.
- Loti, Pierre (1890), *Le roman d'un enfant*, Paris.
- Müller-Hauser, Marie-Louise (1943), *La mise en relief d'une idée en français moderne*, Genève.
- Nyrop, Kristoffer (1925), *Grammaire historique de la langue française*, Copenhague.
- Ovsyaniko-Kulikovskiy, Dimitriy (1902), *Sintaksis russkogo yazika*, Sankt-Peterburg: B.i.
- Potebnya, Aleksandr (1958), *Iz zapisok po russkoy grammatike*, Moskva.
- Shaxmatov, Aleksandr (1966), *Sintaksis russkogo yazika*, vip. 2 y, L.
- Vinogradov, Vladimir (1975), O kategorii modalnosti i modalnix slovax v russkom yazike, Izbranniye trudi. Issledovaniya po russkoy grammatike, Moskva: Nauka.
- Yoqubov, Jamoliddin (2005), *Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari*, Toshkent: Fan nashriyoti.